



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA NUTQQA O'RGAATISH

D. M. Isoqjonova

Nizomiy nomidagi TDPU surdopedagogika va maxsus
pedagogikaning klinika asoslari kafedrasi o'qituvchisi

M. U. Yunusova

Nizomiy nomidagi TDPU surdopedagogika va inklyuziv
ta'lif yo'nalishi 3- bosqich talabasi

E-mail: yunusovamunira204@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida ularni nutqqa o'rgatishning samarali usullari va metodlari yoritiladi. Eshitish nuqsonlari bolaning og'zaki nutq rivojlanishida jiddiy to'siqlarga sabab bo'lsa-da, zamonaviy pedagogik va logopedik metodlar orqali bu muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin. Maqolada mavjud adabiyotlar tahlili, metodologiya, amaliy natijalar hamda takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: eshitish nuqsoni, nutqqa o'rgatish, surdopedagogika, eshitish apparati, logopedik mashg'ulot, maxsus maktab, audiologik diagnostika.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются эффективные методы и приемы обучения речи при работе с детьми с нарушениями слуха. Хотя нарушения слуха создают серьезные препятствия для развития устной речи ребенка, эти проблемы можно постепенно преодолеть с помощью современных педагогических и логопедических методов. В статье представлен анализ существующей литературы, методологии, практических результатов и предложений.

Ключевые слова: потеря слуха, речевое обучение, сурдопедагогика, слухопротезирование, логопедическое лечение, специальная школа,



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

аудиологическая диагностика.

ANNOTATION

This article discusses effective methods and techniques for teaching children with hearing impairments to speak. Although hearing impairments cause serious obstacles to the development of a child's oral speech, these problems can be gradually eliminated through modern pedagogical and speech therapy methods. The article presents an analysis of the existing literature, methodology, practical results and suggestions.

Keywords: hearing impairment, speech training, deaf pedagogy, hearing aid, speech therapy, special school, audiological diagnostics.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va ularni nutqqa o'rgatish murakkab jarayon bo'lib, maxsus pedagogic yondashuvni talab etadi. Tadqiqotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha har 1000 nafar yangi tug'ilgan chaqaloqdan tahminan 1-3 nafari eshitish qobilyatida muammoga ega bo'lib tug'iladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha 430 milliondan ortiq kishi eshitish qobilyatining yo'qolishi bilan yashaydi, ularning bir qismi bolalardir. Shu bois eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqqa o'rgatish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash dolzARB masala hisoblanadi.

Nutq rivojlashining ahamiyati. Nutq- insoning asosiy muloqat vositasi bo'lib, u orqali fikr almashish, o'zini ifoda etish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish amalga oshiriladi. Eshitish qobilyatidagi nuqson tufayli bolalarda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va gaplarni tuzishda qiyinchiklar yuzaga keladi. Bu esa ularning jamiyatga moslashuviga, bilim olishiga va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqqa o'rgatish jarayonida metodik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar, maxsus o'quv dasturlari va qo'llanmalar qo'llanilib, o'quvchilar bilan individual va guruhiy ishslash tizimi yo'lga qo'yiladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda eshitish apparatlari va koxlear implantlarning imkoniyatlaridan keng foydalanilayotgani natijasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq rivojlanish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshib bormoqda. Shu o'rinda, surdopedagogning kasbiy mahorati, sabr-



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

toqati va bolaga individual yondashuvi muhim omil sifatida maydonga chiqadi.

- Metodologik asos sifatida quyidagilar belgilandi:
- Eksperimental-tajriba usuli;
- Nutq rivojlanish bosqichlarini kuzatish va tahlil qilish;
- So‘rovnoma va diagnostik testlar;
- Audiologik ko‘rsatkichlarni monitoring qilish.

Nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish usullari.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Audiovizual qo’llanmalar

Eshitishida muammosi bor bolalar ko’proq ko’rish va qo’l harakatlariga tayanadi. Shu sababli, suratlar, videolar va maxsus audiovisual vositalardan foydalanish o’quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Masalan 1989-yilda AQSHdagi Gallaudet Universiteti olimlari maxsus audiovisual dasturlar yordamida nutqni rivolantirish samaradorligini oshirish yuzasidan tadqiqot o’tkazishdi. Natijada bunday dasturlar 30% ga yaxshiroq o’zlashtirish ko‘rsatkichlarni ta’minlangan.

2. Logopedik mashqlar

Eshitish qobiliyati past bolalarda nutq apparatini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar bajarish zarur. Rossiyalik olim S.N. Shakirova (2004) eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga talaffuzni shakllantirish bo'yicha logopedik treninglar samaradorligini o’rgandi. Tadqiqot natijasida 6 oy davomida logopedik mashqlarni bajargan bolalar nutqning fonetik jihatdan to’g’ri chiqishida 40% yaxshilanish ko’rsatgan.

3. O’yin texnologiyalari

Pedagogik jarayonda o’yin texnologiyalarida foydalanish bolalarning qiziqishini oshiradi va ularni nutqiy faoliyatiga jalb etadi. Professor D.K. Varga (Vengriya 2010) o’tkazgan tadqiqotda o’yin usullaridan foydalangan o’quvchilarda nutq ko‘nikmalari 25% tezroq rivojlangani aniqlangan. Masalan tovushlarni tanish va so’zlarni birlashtirish bo'yicha o'yinlar muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda kata ahammiyatga ega.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

4. Dasturiy ta'minotdan foydalanish

Zamonaviy texnologiyalar eshitish qobiliyati past bolalar uchun imkoniyatlar yaratadi. 2018-yilda Shvetsiyada olib borilgan tadqiqotda maxsus mobil ilovalardan foydalangan bolalarda talaffuzni to'g'irlash 35% samaradotlikni ko'rsatgan. Interfaol o'quv platformalari esa bolalarni har bir bosqichda tahlil qilib, individual dasturlarni taklif qiladi.

Pedagogik yondashuv

O'qituvchilarning tayyorligi va malakasi kata ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi bilan individual yondashuv asosida ishlash, nutqiy faoliyatdagi yondashuv asosida ishlash, nutqiy faoliyatdagi yutuqlarni muntazam kuzatib boorish va rag'batlantirish muhimdir. G'arbiy Yevropa tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik guruhli darslar va individual mashg'ulotlar eshitishda nuqsoni bo'lган bolalarning o'zlashtirishini 20-25% ga oshiradi. Eshitishida nuqsoni bo'lган bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar tizimi jamiyat taraqqiyoti jarayonida alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Chunki insoniyat hayotining barcha jabhalarida, ayniqsa, ijtimoiy sohada, shaxsning to'laqonli shakllanishida nutq va muloqot yetakchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Eshitish jarayonida yuzaga kelgan nuqson bolaning dunyoni bilishi, o'z fikr va mulohazalarini ifoda etishi, boshqalar bilan o'zaro muloqotga kirishishida jiddiy to'siq bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun maxsus surdopedagogik muassasalarda bunday bolalarni nutqqa o'rgatish, ularning fonetik eshitish, talaffuz, so'z boyligini rivojlantirish, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish bo'yicha alohida pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Eshitishida nuqsoni bo'lган bolalar bilan olib boriladigan nutqqa o'rgatish ishlari, eng avvalo, bolaning qolgan eshitish imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solish, bolani mustaqil nutq jarayoniga jalg etish va ularning so'z boyligini kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Bunday bolalarda eshitish jarayonining cheklanganligi sababli tabiiy ravishda nutq rivojlanishi sekinlashadi yoki umuman shakllanmaydi. Shu bois, surdopedagoglar oldida turgan asosiy vazifalardan biri - bolaning mavjud eshitish imkoniyatlarini aniqlash va ularni bosqichma-bosqich rivojlantirish hisoblanadi. Nutqqa o'rgatish jarayonida pedagog nafaqat o'quv materiallarini yetkazib beradi, balki bolaning fonematik eshitish malakalarini



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

shakllantiradi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ularni farqlash va o‘zaro bog‘lash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi.

Eshitish apparatlarining nutqni rivojlantirish ahamiyati

Eshitish apparatlari eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun nutqni tushunish, muloqot qilish va ijtimoiy moslashuvda katta yordam beradi. Ko’plab tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bunday apparatlar yordamida bolalarning nutqiy rivojlanishi 50-60 % yaxshilanadi. Masalan AQSHning Milliy Sog’liqni Saqlash institute (NIH) tomonidan 2017-yilda o’tkazilgan tadqiqotda eshitish apparati taqib yurgan bolalar maktabdagi darslarni 40% yaxshiroq o’zlashtirgani qayd etilgan.

Eshitish apparatlarining asosiy komponentlari:

- Mikrofon- Tashqi tovushlarni qabul qiladi.
- Kuchaytirgich- Tovush signalini kuchaytiradi
- Ovoz protsessori- Tovushni raqamlı formatda qayta ishlaydi
- Dinamik (O’tkazgich)- Kuchaytirilgan tovushni qloqqa uzatadi
- Quvvat manbai- Ko’pincha batareyalar yoki qayta zaryadlanuvchi akkumlyatorlar

Xulosa

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida nutqqa o’rgatish – murakkab va mas’ulyatli jarayo bo’lib, unda nafaqat maxsus metodik yondashuvlar, balki zamonaviy texnologiyalardan ham keng tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni nutqqa o’rgatishda interfao texnologiyalar, audiovisual qo’llanmalar va logopedik mashqlar alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda o’yin texnologiyalari va maxsus dasturiy vositalardan foydalanish bolalarning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishda kata muvaffaqiyat keltirgan. Shvetsiya va Vengriyada o’tkazilgan tadqiqotlar bu usullarning samaradorligini isbotlagan. O’quv jarayonida bolalarning individual ejtiyohlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish ularning o’zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi

O’qituvchning kasbiy malakasi va tajribasi ham muhim rol o’ynaydi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o’qitishda sabr-toqat, pedagogik mahorat va innovatsion



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

yondashuv birgalikda qo'llanganda ijobjiy natijalar ko'proq namoyon bo'ladi. Bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash va ularning muloqot qobilyatlarini rivojlantirishda o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalari ha qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib eshitish qobilyati past bolalarni nutqqa o'rgatishda kompleks va tizimli yondashuv qo'llash lozim. Zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalarni birlashtirish orqali bolalarning nutqiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvig erishish mumkin. Bu esa ularning kelajakda mustaqil va faol jamiyat a'zosi sifatida shakllanisiga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vohidov A.X. Surdopedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 152 b.
2. Петрова В.Г. Логопедия. – Москва: Академия, 2016. – 280 b.
3. Ibragimova G.B. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash. – Toshkent, 2019. – 130 b.
4. Мукхина В.С. Возрастная психология. – Москва: Академия, 2015. – 320 b.
5. Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti (WHO) 2022. Eshitish qobilyatini yo'qotish va uni rebilitatsiya qilish
6. AQSH Milliy Sog'lijni Saqlash institute 2017. Eshitish apparatlarining bolalar ta'limiga tasiri.
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi 2023. Maxsus maktablarda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma.